

OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.

3449PNRM\***Familiya Ism (Viloyat)**  
**\*JAVOBLAR**

Namuna: 3449PNRM\*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)\*BAADACCCAACA...

**Izoh:**

- 1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida **O',G'** harflari qatnashsa ularni o'rniga **U** va **G** harflarini ishlating.
- 2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.
- 3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. **11.07.2019-13.07.2019**
- 4) Repetitsion testning sms javoblari soat **21:00** gacha qabul qilinadi.

Natijalar: Har kuni **@repetitsiontestuz** kanalida soat **22:00** e'lon qilinadi

## SAVOLLAR KITOBI

999988

*BLOKLAR:*

Biologiya (3.1)

Kimyo (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

*Test topshiruvchi:*

F.I.O.

IMZO

### **DIQQAT!**

*Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.*

*Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!*

## BIOLOGIYA

1. Ko'rgalak skeletidagi harakatsiz (a) va harakatchan (b) birikkan suyaklarini ko'rsating?  
1)ustki jag'; 2)ko'krak umurtqalari; 3)bo'yin umurtqalari; 4) oyoq kamari; 5)qovurg'alar; 6)pastki jag'  
A) a-1, 4, 5; b-2, 3, 6  
B) a-2, 4, 5; b-1, 3, 6  
C) a-1, 2; b-3, 4, 5, 6  
D) a-1, 2, 4; b-3, 5, 6
2. Hind fili va Afrika filining (a), zubr va bizonning (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?  
A) a-allopatrik tur paydo bo'lish, b-allopatrik tur paydo bo'lish  
B) a-simpatrik tur paydo bo'lish, b-allopatrik tur paydo bo'lish  
C) a-allopatrik tur paydo bo'lish, b-simpatrik tur paydo bo'lish  
D) a-simpatrik tur paydo bo'lish, b-simpatrik tur paydo bo'lish
3. Sebarga o'simligida aerob sharoitda 57 molekula ATF hosil bo'lgan bo'lsa, shu vaqtning o'zida yorug'lik ta'sirida sintezlangan ATF miqdorini aniqlang.  
A) 1140 B) 1520 C) 2280 D) 1710
4. Orqa miyaning bo'yin segmentidan diafragma muskulining payiga impuls borganda, qaysi muskullarning tolasidagi retseptorlar -I va qaysi muskullarning payidagi retseptorlari-II qo'zg'aladi.  
a)qorin muskullari; b)bo'yin muskullari; c)ichki qovurg'alararo; d)tashqi qovurg'alararo.  
A) I-b,d; II-a,c B) I-a,c; II- b,d  
C) I-a,d; II-b,c D) I-b,c; II-a,d
5. Funariya hujayrasida kechuvchi jarayonlarni ko'rsating.  
1-ribosoma shakllanishi 2-xromasoma spirallashuvi 3-transkripsiya jarayoni 4-tranlatsiya 5-lipid sintezi 6-reduplikatsi  
  
a-golji majmuasi, b-sitoplazma c-endoplazmatikto`r d-yadro e-hujayra markazi  
A) 1-d,2-b,3-d,4-b,5-c B) 1-a,2-b,3-d,4-c,5c  
C) 1-d,2-d,3-b,4-e,5-c D) 1-d,2-b,3-d,4-a,5-e
6. Kungaboqarning somatik hujayrasidagi xromasomalar soni olchanning somatik hujayrasidagi xromasomalar sonidan 2 taga ko'p. Kungaboqarning savatchasida 442 ta urug' hosil bo'lgan bo'lsa, urug' hosil qilishda qatnashgan mikrosporadagi autosoma xromosomalar sonini toping.  
A) 12376 B) 13260 C) 6466 D) 7072
7. Quyidagi fikrlardan qaysi biri xato?  
A) sabzi ildiz mevasi shakli o'zgargan ildiz  
B) gul shakli o'zgargan novda  
C) qamish ildizpoyasi shakli o'zgargan novda  
D) yantoq tikani shakli o'zgargan barg
8. Odam yuragining chap bo'lmachasi diastola holatida bo'lgan vaqtda...  
A) qorincha sistola holatida bo'ladi; yarimoySimon klapan yopiq bo'ladi  
B) ikki ta va qali klapan yopiq bo'ladi; sistolik bosim kuzatiladi  
C) ikki ta va qali yopiq bo'ladi; qorincha diastola holatida bo'ladi  
D) yarimoySimon klapan yopiq bo'ladi; diastolik bosim kuzatiladi
9. 2-bosqichda 60 kJ energiya issiqlik energiyasi sifatida tarqalsa, 3-bosqichda issiqlik sifatida tarqalgan energiya(a) va xoraplastda ATF ga bo'glanga energiya miqdorini(b) aniqlang.  
A) a-1160, b-42300 B) a-1440, b-1080  
C) a-580, b-22200 D) a-580, b-21600
10. Dorivor (I), ziravor(II) va zeb-zinat (III) sifatida ishlovchi mevalarni ajrating? 1)marmarak; 2)alqor; 3)sedana; 4) qanbirmunchoq; 5)zubtutum; 6)murch 7)yersovun; 8) tasbehmunchoq; 9)na' matak.  
A) I-3, 5,6; II-2,4,7; III-1,8,9.  
B) I-1,5,9; II-2,3,6; III-4,7,8  
C) I-2,3,6; II-4,7,8; III-1,5,9  
D) I-4,6,7; II-1,3,5; III-2,8, 9
11. Trias davriga (a), bo'r davriga (b), silur davriga (c) xos aromorfozlarni aniqlang.  
1)dastlabki sutemizuvchi hayvonlarning paydo bo'lishi; 2) zamburug'lar paydo bo'lishi; 3)uchuvchi hasharot- suvaraklar, ninachilarning rivojlanishi; 4)bir urug'pallali, ikki urug'pallali sinflarining ko'p oilalari rivojlanishi; 5)sutemizuvchilarning xaltali va yo'ldoshli kenja sinf vakillarining paydo bo'lishi; 6) kaltakesak, toshbaqalar ajdodlarining paydo bo'lishi; 7)ko'p hujayrali yashil suvo'tlarning ba'zilari quruqlikka chiqishga muvaffaq bo'lishi.  
A) a- 3,7; b- 1,2; c- 4,6  
B) a- 2,4; b- 5; c- 3,7  
C) a- 1,6; b- 4,5; c- 2,7  
D) a- 3,6; b- 4; c- 1,2
12. Eco R1 ga tegishli to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang?  
1)plasmid turi 2)kesuvchi endonukleaza 3)oqsillarni parchalaydi 4)nuklein kislatlarni parchalaydi 5)kesuvchi qismi GG orasida 6)kesuvchi qismi GA orasida 7)kesuvchi qismi CG orasida 8)H va fosfodiefir bog'larni uzadi 9)faqat H bog'ni uzadi 10)faqat fosfodiefir bog'larni uzadi  
A) 2,4,6,8 B) 2,4,7,10  
C) 2,4,7,8 D) 2,4,5,8
13. "Oddiy amyoba" ushbu nomlanishda "oddiy" (a) va "amyoba" (b) so'zlari sistematikaning qaysi sistematik birlikka tegishli?  
1)tur; 2)turkum; 3)oila; 4)tip; 5)sinfi 6)urug'  
A) a-1, b-5 B) a-1, b-6  
C) a-1, b-3 D) a-1, b-2
14. O'pkani tashqi tomondan o'rab turgan parda qanday nomlanadi  
A) sinovyal parda; B) serroz pardai;  
C) shilimshiq parda; D) plevra pardasi;
15. Ovoz hosil bo'lishida ishtirok etuvchi qismlar (I) va ovoz boylamlarining ochiq holdagi shaklini (II) belgilang.  
1-lablar; 2-tishlar; 3-bronxlar;4-o'pka; 5-burun bo'shlig'I; 6-halqum; 7-yuz peshona suyaklari orasidagi qo'shimcha kovaklar;8-yopiq; 9-yarim ochiq; 10-uchburchak  
A) I-1,5,6,7,3,4; II-10  
B) I-1,2,3,4,5,7; II-10  
C) I-1,3,4,5,6,8; II-10  
D) I-1,5,6,7,3,4; I-8
16. Kurtaklanib bo'linish qaysi organizmlarga xos emas  
A) zamburug'lar B) tuban ko'p hujayrali hayvonlar  
C) barchasiga xos D) bakteriyalar
17. Ch.Darvin asarlarini(a) va Arestotel asarlarini(b) aniqlang.  
1."turlarning paydo bo'lishi" 2."odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish"  
3."Zologiya falsafasi" 4."Xonakilashtirilgan hayvon, madaniy o'simliklarning o'zgaruvchanligi" 5"Zologiyaga kirish"  
6"Hayvonlarning tana qismlari" 7."Hayvonlarning paydo bo'lishi" 8."Hayvonlar tarixi"  
A) a-1,2,4 b-6,7,8 B) a-6,7,8 b-5,3  
C) a-1,7 b-2,3 D) a-1,2,4 b-3,5
18. Mitoxondrada kechuvchi energiya almashinuviga xos xususiyatni aniqlang  
A) sut kislotani hosil bo'lishi  
B) kislorodni ajralishi

- C) to'plangan energiyani ajralgan issiqlik energiyasidan ko'pligi  
D) glukosani oksidlanishi
19. drozafiliya hujayrasida kechuvchi jarayonlarni ko'rsating.  
1-ribosoma shakillanishi 2-xromasoma spirallashuvi 3-transkripsiya jarayoni 4-tranlatsiya 5-lipid sintezi 6-reduplikatsi  
a-golji majmuasi, b-sitoplazma c-endoplazmatikto'r d-yadro e-hujayra markazi  
A) 1-d,2-b,3-d,4-a,5-e B) 1-d,2-b,3-d,4-b,5-c  
C) 1-a,2-b,3-d,4-c,5e D) 1-d,2-d,3-b,4-e,5-c
20. Turp o'simligi ( $n = 9$ ) mikrosporasida bo'linishining anafaza davri yakunida nechta xromosoma (A) va xromatida (B) bo'ladi?  
A) a-18; b-18; B) a-36; b-36;  
C) a-18; b-36 D) a-9; b-18;
21. Sudralib yuruvchilar sinfiga mansub relikt formani aniqlang.  
A) gatteriya B) yexidna  
C) latimeriya D) opossum
22. Tovuqlarning kalta oyoqli zoti polizlarni titkilab tashlamaydi, lekin bu belgi tovuq tumshug'ining qisqarishiga ham sababchi bo'ladi. Natijada dominant gomezogotali jo'jalar tuxumini yorib chiqolmay halok bo'ladi. Faqat kalta oyoqli tovuq yetishtiruvchi inkubatorida 3000 ta jo'ja tuxumdan yorib chiqdi. Ularning nechtasi normal oyoqli bo'ladi?  
A) 750 B) 1000 C) 2000 D) 1500
23. Orangutan somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
1) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 2) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 3) profazada ikki xromatidali autosomalar soni 46 ta; 4) anafazada xromosomalar soni 96 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 46 ta  
A) 1,3 B) 3,4 C) 2,6 D) 4,5
24. B<sub>12</sub> vitamini uchun mos bo'lmagan ma'lumotlarni ajrating.  
1)mikroorganizmlardan olinadi;2)lishayniklar tarkibida bo'ladi;3) qon ivishida ishtirok etadi;  
4)qon hosil bo'lishida ishtirok etadi; 5) tarkibida kobalt ioni bor;6)suvda eriydi; 7) yog'da eriydi.  
A) 2, 5 B) 3, 7 C) 4, 6 D) 1, 2
25. Bada o'simligida gulining yashil rangda bo'lishini dominant A va B genlari belgilaydi. A-bb holatda gul qizil, aa-B holatda gul sariq, ikkala gen retsessiv bo'lganda gul oq rangda bo'ladi. Digeterozigota yashil o'simlik geterozigota qizil gulli o'simlik bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizi yashil gulli bo'ladi?  
A) 25 B) 6,25 C) 37,5 D) 50
26. Agar zog'ora baliq embrioni hosil qilgan blastomerlarida barchasi bo'lib 53248 ta xromosoma bo'lsa, uning embrioni necha marta meridional va ekvatorial bo'inganligini aniqlang.  
A) 6 marta meridional, 3 marta ekvatorial  
B) 4 marta meridional, 4 marta ekvatorial  
C) 5 marta meridional, 4 marta ekvatorial  
D) 4 marta meridional, 5 marta ekvatorial
27. O'simlikxo'r umurtqali (a), yirtqich umurtqasiz (b) hayvonlarni aniqlang.  
1) maral; 2) tillako'z; 3) kolorado qo'ng'izi; 4) kabarga; 5) miqqiy; 6) falanga; 7) zubr; 8) zlatka; 9) biy; 10) qaldirg'och  
A) a-4,8; b-5,10 B) a-1,4; b-2,6  
C) a-1,7; b-9,10 D) a-2,3; b-4,5

28. Quyidagi umurtqasiz organizmlarning muhit sharoitiga moslanuvchanlik turlari-ogohlantiruvchi rang (I) va mimikriya (II) ga mos keluvchi javoblar bilan juftlab ko'rsating.  
1) chupchikning ingichka novdaga taqlidi; 2) tillaqo'ng'iz qanotining rangi; 3) g'o'ng'illovchi pashshaning ariga o'xshash qiyofasi; 4) kakku tuxumining bulbul tuxumiga o'xshashligi; 5) belyankaning oynasimon kapalakka o'xshashligi; 6) su va rakning "xonqizi"ga o'xshashligi; 7) baqachanoqning daraxt kurtagiga o'xshashi; 8) ko'lbuqa patlarining qamishni eslatishi  
A) I-2; II-3,6 B) I-1; II-3,6  
C) I-2,5; II-8 D) I-2,7; II-4
29. Odamda qaysi usulni tadbqiq etib bo'lmaydi  
A) ontogenetik; B) eksperimental;  
C) egizaklar; D) genologik;
30. Terakning orasi teshikli to'siqlar bilan bo'lingan hujayralardan iborat naychalariga xos xususiyatlarni aniqlang.  
1)otkazuvchi to'qimaga mansub  
2)tirik hujayra  
3)cho'ziq  
4)o'lik hujayra  
5)barglarda hosil bo'lgan organik moddalar harakatlanadi  
6)yumaloq hujayra  
7)mexanik to'qimaga mansub  
8)hujayra qobig'iga suberin moddasi shimilgan  
9)suv va unda erigan moddalarni o'tkazadi  
10)yupqa devorli o'lik parenxima hujayralardan iborat  
11)lub tolalari orasida joylashgan  
A) 1,2,4,8,9 B) 4,5,6  
C) 2,3,11 D) 3,5,7,10,11

---



---

### KIMYO

---



---

31. 200 ml ( $\rho = 1,25 \text{ g/ml}$ )  $K_2SO_4$  eritmasiga 150 ml suv qo'shib, 20A tok kuchi bilan 6,7 soat elektroliz qilinganda, 20% li eritma hosil bo'lgan. Dastlabki eritmaning molyar konsentratsiyasini aniqlang.  
A) 1,35 B) 28,4 C) 2,4 D) 4,6
32. Alken vodorod xlorid bilan ta'sirlashib 7,85g xloralkan, vodorod bromid bilan ta'sirlashib 12,3g bromalkanni hosil qilsa, alkenni aniqlang.  
A) C<sub>5</sub>H<sub>10</sub> B) C<sub>4</sub>H<sub>8</sub> C) C<sub>3</sub>H<sub>6</sub> D) C<sub>2</sub>H<sub>4</sub>
33. Tarkibida 800 ml suv bo'lgan 6,25 molyalli NaOH eritmasiga quruq NaOH qo'shilganda 36 % NaOH eritmasi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan eritmadagi NaOH miqdorini aniqlang.  
A) 11,25 B) 24,06 C) 24,98 D) 250
34. Pog'anachalardagi elektronlar sonini topish formulasini ko'rsating?  
A)  $m_l = (2l + 1)$  B)  $N = n^2$   
C)  $m_l = 2(2l + 1)$  D)  $N = 2n^2$
35. 0,7 g X metal suyultirilgan  $H_2SO_4$  da eritilganda tuzning 250 ml 0,05M li eritmasi hosil bo'ladi. X metallni suyultirilgan  $HNO_3$  bilan reaksiyasida azot gazi ajralsa, reaksiyaning qisqa ionli tenglamasining o'ng tomonidagi atomlar yig'indisini aniqlang.  
A) 154 B) 70 C) 60 D) 77
36. Azot va kislorodning 60 litr aralashmasida azotning hajmiy ulushi 20%. Undan X litr gaz chiqarilib o'rniga shunday hajmdagi kislorod qo'shildi. Oxirgi aralashma hajmiy tarkibida 8% azot qolgan bo'lsa, X ni aniqlang.  
A) 12 B) 16 C) 20 D) 36

37. Harorat 10°C dan 90°C gacha ko'tarilganda reaksiya tezligi 256 marta oshsa, ushbu reaksiya tezligi harorat har 20°C ga oshganda necha marta ortadi?  
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4
38. 19,575 g marganes oksidi aluminiy bilan qaytarilganda  $9,03 \cdot 10^{22}$  ta aluminiy oksid molekulasini hosil bo'ldi. Oksiddagi marganesning ekvivalentini aniqlang.  
A) 7,86 B) 13,75 C) 18,33 D) 27,5
39. 1 mol  $H_2$  va  $Cl_2$  dan iborat aralashma ( $H_2$  mo'l olingan) o'zaro ta'sirlashdi va muvozanat qaror topdi ( $K_m=2$ ). Muvozanat vaqtida  $H_2$  va  $HCl$  ning konsentratsiyalari o'zaro tenglashdi. Reaksiya uchun olingan  $H_2$  va  $Cl_2$  ning mol miqdordagi ayirmasini aniqlang. (reaksiya 1 litrli idishda olib borilgan)  
A) 0,1 B) 0,4 C) 0,2 D) 0,3
40. 7,4 g aldegid va propanol aralashmasiga kumush oksidning ammiakli eritmasi qo'shib bir oz qizdirilganda 21,6 g cho'kma tushdi. Agar boshlang'ich aralashmadagi aldegidning spirtga nisbati 2:1 mol bo'lsa, undagi spirt massa ulushini va aldegid nomini aniqlang.  
A) 0,6; propanal B) 0,4; etanal  
C) 0,12; etanal D) 0,25; propanal
41. Kaltsiy fosfat molekulasida nechtdan  $\sigma$  - va  $\pi$  - bog'lar bo'ladi?  
A) 28; 4 B) 14; 2 C) 21; 3 D) 7; 1
42. Molekulasida bitta uchbog' va ikkita qo'shbog'i bo'lgan ochiq zanjirli uglevodorodlarning ozonda yonishining umumiy tenglamasida ozon oldidagi koeffitsiyent nimaga teng bo'ladi? (reaksiyanatijasida  $CO_2$  va  $H_2O$  hosil bo'ladi deb hisoblang)  
A)  $1,5n-1$  B)  $n-1$  C)  $1,5n-1,5$  D)  $2n-1/3$
43. 15,9 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislota olinadi? ( $\eta=0,75$ )  
A) 16,2 B) 43,2 C) 28,8 D) 21,6
44. Ishqoriy metal oksidi va peroksididan iborat 1,4 g aralashma gidrolizlanganda 112 ml gaz ajraldi. Hosil bo'lgan gidroksidni to'liq neytrallashtirish uchun 0,04 mol xlorid kislota eritmasi sarflangan bo'lsa, noma'lum metal oksidining massasini (g) aniqlang.  
A) 0,3 B) 0,94 C) 0,62 D) 0,78
45. 20 g xalkozin va 40 g kupritning o'zaro ta'sirlashuvidan olingan metal 80% li sulfat kislota eritilganda 13,44 litr (n.sh) gaz hosil bo'lgan bo'lsa, kupritning tozalik darajasini (%) aniqlang.  
A) 72 B) 86 C) 64 D) 56
46. Xlorid kislota va xloridlarni aniqlash uchun qaysi kationning eruvchan tuzi ishlatiladi?  
A)  $Na^+$  B)  $Fe^{2+}$  C)  $Cu^{2+}$  D)  $Ag^+$
47. 24 g A spirt teng miqdorda 2 idishga ajratildi. 1-idishdagi spirt oksidlanganda B kislota hosil bo'ldi. Ikkinchi idishdagi A spirt bilan B kislota reaksiyaga kirishganda 23,2 g murakkab efir hosil bo'lsa, spirtlarni aniqlang. 1)  $CH_3CH_2CH_2OH$  2)  $CH_3CH_2CH_2CH_2CH_2OH$   
3)  $CH_3CH_2CH_2CH_2OH$  4)  $CH_3CH(CH_3)OH$   
A) 4 B) 1,4 C) 2,3 D) 1
48.  $3d^8$  dagi oxirgi elektroni uchun kvant sonlari qiymatini (n, l, m, s) aniqlang.  
A) 3; 2; -2; -1/2 B) 3; 1; -1; -1/2  
C) 3; 2; 0; -1/2 D) 3; 2; 0; +1/2
49. 9/21 g azot oksidi tarkibida 0,2 g azot bor. Shu oksid tarkibidagi azotning ekvivalentini aniqlang.
- A) 7 B) 7/2 C) 14/5 D) 14/3
50.  $H_2SO_3 + H_2SO_4 + K_2Cr_2O_7 \rightarrow \dots$  reaksiyani tugallang va  $S^{4+}$  ning qanday oksidlanish darajasiga o'tishini aniqlang.  
A) +2 B) -2 C) 0 D) +6
51. Murakkab efirga ammiak ta'sir ettirilganda kislota amidi hosil bo'ladi. Ushbu reaksiyada 48,1 g etilformiatdan necha gramm spirt hosil bo'lishini aniqlang. ( $\eta=0,8$ )  
A) 14,4 B) 6,4 C) 16,1 D) 23,92
52. Adenindagi ixtiyoriy 3 ta vodorod atomi gidroksil guruhiga almasha, uning m.a.b qancha bo'ladi?  
A) 167 B) 163 C) 168 D) 183
53.  $Cr_2O_3 + KNO_3 + KOH \rightarrow K_2CrO_4 + NO + H_2O$  reaksiya tenglamasini tugallang va koeffitsientlar yig'indisini aniqlang.  
A) 23 B) 11 C) 12 D) 10
54. 50 g oleum eritmasini neytrallashtirish uchun 118 ml (1,33 g/ml) 30% li natriy gidroksid eritmasi sarflandi. Massasi 75 gramm shunday tarkibli oleum eritmasiga 30% li (1,22 g/ml) sulfat kislota eritmasidan qanday hajmda (ml) qo'shilganda 50% li oleum eritmasi hosil bo'ladi?  
A) 193 B) 2,1 C) 201 D) 3,1
55.  $H_2SO_4 \rightarrow S \rightarrow H_2S$  qatorda quyidagi qaysi xossa ortadi?  
A) suvda eruvchanligi B) oksidlovchilik  
C) dissotsilanish darajasi D) qaytaruvchanlik
56. Tarkibida Mg va Al bo'lgan 1,26 g qotishmasi 35 ml 19,6%  $\rho = 1,14$  g/ml sulfat kislota eritildi. Ortib qolgan kislota 28,6 ml 1,4 M kaliy gidrokarbonat eritmasi bilan reaksiyaga kirishdi. Qotishmadagi metallarning massa ulushlarini va ajralib chiqqan gazning hajmini toping.  
A) 57% Mg; 42,9% Al; 1,3441  $H_2$   
B) 42,9% Mg; 57,1% Al; 1,3441  $H_2$   
C) 57,1% Mg; 42,9% Al; 2,6881  $H_2$   
D) 42,9% Mg; 57,1% Al; 2,6881  $H_2$
57. Gippur kislotani  $H_2SO_4$  ishtirokida gidrolizlab qanday aminokislota olinadi?  
A) valin B) L-alanin  
C) D-alanin D) glitsin
58. Maltoza gidrolizidan olingan glukoza massasi boshlang'ich disaxarid massasidan 45 grammga ortiq bo'lsa, undan olingan moy kislotaning yetarli miqdordagi Na metali o'zaro ta'siridan necha gramm  $H_2$  ajraladi?  
A) 10 B) 5 C) 4 D) 2,5
59. Tabiiy polimerni aniqlang.  
A) polipropilen B) glukoza  
C) fenolfarmaldegid smola D) lignin
60. Nitrit kislota yordamida aminokislota va oqsillar dagi qanday guruhni miqdoriy analiz qilish mumkin?  
A)  $-NH_2$  B)  $-COOH$  C)  $-CH_3$  D)  $-C(O)-$

---



---

**ONA TILI VA ADABIYOTI**

---



---

61. Qaysi gapdagi sifat to'ldiruvchi va aniqlovchining belgisini bildirib kelgan?  
A) Baland-past devorlar orasidagi mevalarning oq, pushti, qizil gullariga tabassum bilan qaraysan.  
B) Goho-goho keladigan uzug-yuluq xabarlardan boshqa aloqa yo'q.  
C) Mahallaning oq-qora bolalari shoxdan shoxga tirmashadi.  
D) Shoshilinch, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik -

- nodonlar ishi.
62. O'tdi yoshlik zavq bilan, gohi to'polon bilan,  
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,  
Ayri ham tushdim ba'zan qalb bilan, imon bilan,  
Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabbatim  
Ushbu she'riy parchadagi yasama so'z(lar) quyidagi qaysi  
bo'lak(lar) ga nisbatan hokim bo'lak hisoblanadi?  
1) ega; 2) to'ldiruvchi; 3) hol; 4) aniqlovchi.  
A) 3, 4 B) 3 C) 1, 2 D) 2
63. Tarkibida otlashgan so'z ishtirok etmagan qatorni aniqlang.  
A) Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat.  
B) Kattaga - hurmat, kichikka - izzat.  
C) Yomonni tanqid qil, yaxshiga taqlid qil.  
D) Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham soz so'zlar.
64. **Yoqasini ushlamoq** iborasiga sinonim bo'lgan so'zni toping.  
A) hayratlanmoq B) g'azablanmoq  
C) xursand D) qo'rqmoq
65. **Akrom qafasni ochdi // kaklik o'zicha "qiyq" deb qo'ydi.** Gapning turini va // belgisi o'rniga qanday tinish belgisi qo'yilishini aniqlang.  
A) bog'langan qo'shma gap, vergul  
B) ergashgan qo'shma gap, vergul  
C) bog'langan qo'shma gap, ikki nuqta  
D) bog'lovchisiz qo'shma gap, vergul
66. Tinish belgilari noto'g'ri qo'llangan ko'chirma gapni toping.  
A) Millatlarni, elatlarni - deydi M.Ulug'ova -buyuk do'stlik birlashtiradi.  
B) Yuringlar, - dedi kampir o'rnidan turib, - sen ham yur.  
C) Sizlarga uy topib bersam, qiroatxona ochmaysizlarmi?  
D) Voy-bo', - deb yubordi u. - Yerimiz muncha chiroyli!
67. Onaga // eng ulug' zotga // ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. Ushbu gapda // belgilari o'rniga qanday tinish belgisi qo'yiladi?  
A) ko'p nuqta B) tire C) qavs D) vergul
68. Nechta so'z to'g'ri yozilgan?  
aboniment, avf, fortepiano, krepdeshin, koreys, intellektual, slavyan, talafot  
A) 8 ta B) 3 ta C) 7 ta D) 5 ta
69. Qaysi javobda qo'shma gapning ikkinchi qismida qo'llanadigan bo'g'lovchilar keltirilgan?  
A) toki, shuning uchun, bilan, hamda, basharti  
B) chunki, negaki, goh. . . goh, balki, mabodo  
C) ammo, lekin, agar, chunki, negaki  
D) chunki, negaki, balki, ammo, lekin, biroq, ya'ni
70. Javoblarning qaysi birida -ma qo'shimchasi urg'u olgan holatda qo'llanishi mumkin bo'lgan so'z berilgan?  
A) aytma B) burama  
C) yozdirma D) kiydirma
71. Qaysi vositalar orqali ifodalangan so'roq gaplar «ha» yoki «yo'q» javoblarini talab qiladi?  
A) so'roq ohangı B) so'roq yuklamalari  
C) so'roq olmoshlari D) hammasi
72. O'z tilingizda fikrlashga, toza gapirishga, nutqingizni har xil yot unsurlardan saqlashga harakat qiling. Til mavsumiy libos emaski, ob-havoning o'zgarishiga qarab almashtirilsa. Kishi boshqa tilda bilimli bo'la oladi, ammo faqat o'z tilida barkamol bo'lishi mumkin. Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini toping.  
A) 9 ta B) 7 ta C) 8 ta D) 6 ta
73. Qaysi qatorda ilmiy uslubga xos gap berilgan?  
A) Seni hur va ozod kuylaymen.  
B) Saxiylik va olijanoblik ulug'vor fazilatdir.  
C) Ega va kesim gapning grammatik asosi hisoblanadi.
- D) Nedin g'amnok ko'rinasiz?
74. Ma'lumki to'rtta son shakli "sehrli sonlar" sanaladi. Ushbu "sehrli sonlar" tarkibida nechta jarangsiz undosh mavjud?  
A) 8 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 7 ta
75. Ismlar guruhiga mansub bo'lgan, metafora usulida ma'nosi ko'chgan yasama so'z qatnashmagan gapni belgilang.  
A) Yuragi qattiq ura boshladi.  
B) Tiyrak Hamidning nursiz hayotini bezagan birdan-bir narsa onasi Komila opaning so'zlagan ertaklari bo'ldi.  
C) Loyqa xayolotlar chashmaday tindi.  
D) Har holda, Toshkent ustiga yana qonli bulutlar chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlanar, bu bir xudoga ma'lumdir.
76. Quyidagi matnda qo'llangan olmosh qaysi birlik o'rnida kelgan? Yaxshilik qo'lingdan kelmasa, yomonlik qilma. Bu hech qachon yodingdan chiqmasin.  
A) qo'shma gap o'rnida B) so'z o'rnida  
C) so'z birikmasi o'rnida D) sodda gap o'rnida
77. G'arbiy til an'anasida yozilgan  
Qul Alining «Qissayi Yusuf» asari qachon yaratilgan?  
A) 1339-yili B) 1309-yili  
C) 1209-yili D) 1239-yili
78. Oллоhga eng yomon ko'rinadigan odam, avvalo, gina va adovatni uzoq saqlovchi odamdir. Kimningki g'azabi kelsa, so'zsiz, jim bo'lsin. Birinchidan, olim (ilm beruvchi) bo'l yoki ilm o'rganuvchi bo'l, yoki tinglovchi bo'l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, afsuski, unda halok bo'lasan.  
Ushbu matn haqidagi qaysi fikrlar to'g'ri?  
1) Modal so'zlarning uch turi qo'llangan.  
2) Vergulning qo'yilishi faqat kirish so'zlar hamda uyushiq bo'laklar bilan bog'liq.  
3) Besh o'rinda kesim grammatik shaklga ega.  
4) Ergashgan qo'shma gapning ikki turi qo'llangan.  
5) Bog'lovchilarning qo'llanilishiga ko'ra ikki turi mavjud.  
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5  
C) 3, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5
79. Qaysi javobda quyida keltirilgan gapdagi yasama so'zlar yuzasidan xato hukm bildirilgan?  
Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad – milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.  
A) otdan sifat yasalgan  
B) olmoshdan ot yasalgan  
C) otdan fe'l yasalgan  
D) fe'ldan ot yasalgan
80. O'rta keng unlisi cho'ziq talaffuz qilinsa-da, undan so'ng tutuq belgisi qo'yilmaydigan so'zni toping.  
A) mo'tadil B) beso'naqay  
C) me'mor D) obro'
81. Noto'g'ri yozilgan so'zni toping.  
A) tadqiqot B) ta'mir  
C) tadbiiq D) taqdim
82. "Yovvoyi yo'rg'a"(Seton-Tompson) hikoyasida kuzda hisob-kitob qilib ko'rib, «shahami aylanish» istagidan o'zini tiyolmagan Joning bor-yo'g'i nimadan iborat bo'lib qoldi?  
A) egar, kiyim-bosh hamda qari echkidan.  
B) egar, tamg'a hamda qari otdan.  
C) egar, to'shak hamda qari sigirdan.  
D) egar, kulba hamda qari baytaldan.
83. A.Muxtorning «O'zirniki emas bu umr...» she'rida shoirning iqrori tarzida bitilgan satrlar qaysi?  
A) Yengil-yelpi o'tsa umrdan bir dam, Rozi-rizo bo'lmas egasi.  
B) O'zirniki emas. O'rtada baham Achchiq-chuchugi-yu, guli, mevasi.  
C) Bir vaqtlar meni deb halok bo'lgan kimdir, Men uning uchun ham yashab yuribman.

- D) O'zirniki emas bu umr, To'la menikimas, sezib turibman.
84. "Rustamxon" dostonida Sultonxon shahardan necha mahram bilan jo'nadi?  
A) uch lak B) olti yuz  
C) besh yuz D) to'rt yuz
85. Jonibek Sultonga bag'ishlangan asarni belgilang.  
A) "Hibat ul-haqoyiq" B) "Maqsad ul-atvor"  
C) "Miftoh ul-adl" D) "Muhabbatnoma"
86. "Bemor" hikoyasida "omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lgan" kim edi?  
A) Erkaboy B) Sotiboldi  
C) Sotiboldining xotini D) Abdug'aniboy
87. «Alp Er To'nga» marsiyasining turoqlarini aniqlang.  
A) 3 + 3 + 1 B) 4 + 3  
C) 1+3 + 3 D) 3 + 4
88. "Mening o'g'ringina bolam" hikoyasida chitfurush boyning ismi kim?  
A) Rahmonxo'ja B) Odilxo'jaboy  
C) Karim qori D) Matyoqubboy
89. "...ustiga atlas ko'rpalar yopilgan tanchaning to'rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po'stin kiyib bir kishi olturadir. Bu kishi..." "O'tkan kunlar" dan olingan ushbu parchada tasvirlangan obraz kim?  
A) Otabek B) Yusufbek Hoji  
C) Homid D) Mirzakarim qutidor
90. Navoiy "hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan badi' nishotlar kayfiyatin yozilib erdi" deb qaysi devoni haqida aytgan?  
A) "Favoyid ul-kibar"  
B) "Badoye' ul-vasat"  
C) "G'aroyib us-sig'ar"  
D) "Navodir ush-shabob"